

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

MAMATKULOV ELDOR SAFAROVICH

**O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINING HOZIRGI BOSQICHIDA YANGI
MA’NAVIY MAKONNI YARATISH TAMOYILLARI VA
IMKONIYATLARI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on philosophical sciences**

Mamatkulov Eldor Safarovich

О‘zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida yangi ma’naviy makonni
yaratish tamoyillari va imkoniyatlari.....3

Маматкулов Элдор Сафарович

Принципы и возможности создания нового духовного пространства на
современном этапе развития Узбекистана23

Mamatkulov Eldor Safarovich

Principles and possibilities of creating a new spiritual space at the present stage of
development of Uzbekistan.....45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of works published.....50

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

MAMATKULOV ELDOR SAFAROVICH

O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINING HOZIRGI BOSQICHIDA YANGI
MA’NAVIY MAKONNI YARATISH TAMOYILLARI VA
IMKONIYATLARI

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Fal1065 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Nazarov Qiyom Normerzayevich
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Choriyev Sanjarbek Anvarovich
falsafa fanlari doktori, professor

Norqobilov Muzaffar Jumayevich
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil "25" iyun soat 9⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (680 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "5" iyun kuni tarqatildi.

(2025 yil "5" iyun dagi 16 raqamli reyestr bayonnomasi.)



Namozov B.B.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

Sharipov A.Z.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, professor

Safarova N.O.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ijtimoiy o'zgarishlar sur'atining jadallashuvi bir tomondan, intensiv taraqqiyotga, barqarorlikning mustahkamlanishiga imkon yaratayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, moddiy boylikka intilish va ekologik muammolarning ko'payishi barqaror rivojlanish yo'lini belgilash va ma'naviy hayot tizimini qayta baholash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Aynan shu nuqtada ma'naviyat tizimi, insonning ichki dunyosiga ta'sir ko'rsatadigan o'ziga xos ijtimoiy-falsafiy muhit ya'ni, ma'naviy makon mazmuni va tarkibini aniqlash orqali insonlarning axloqiy tamoyillari va hayotiy qarashlarini shakllantirish, jamiyatda birdamlik va mehr-oqibatni rivojlantirish imkoniyati mavjud. Shuning uchun tinchlik va barqarorlikni ta'minlash va madaniy yuksalishda ma'naviy makonning o'ziga xos xususiyatlarini yangilanuvchanlik, o'zgaruvchanlik va vorisiylik kabi tamoyillari hamda intensivlik va innovatsion xususiyatlarini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fani va yetakchi ilmiy markazlarda yangi ma'naviy makon, uning rivojlanish vektorlaridagi ahamiyati, strategik mo'ljallarni belgilashdagi roli, postmodern jamiyat sharoitidagi ijtimoiy pozitsiyasi kabi masalalar bo'yicha keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Zamonaviy davrda yangi ilmiy tendentsiyaga aylanib borayotgan "ma'naviy makon" tushunchasi va uning namoyon bo'lish shakllari, mintaqa hamda hududlarga xos xususiyatlari bilan uzviy bog'liq masalalar, ijtimoiy rivojlanishga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash va tahlil qilish masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu jihatdan ma'naviy makonning umuminsoniy, mintaqaviy va milliy jihatlari hamda ustuvor tamoyillari, uni parokanda qilishga intilayotgan buzg'unchi g'oyalar, mafkuralarining mohiyati, ma'naviy makon sofligini saqlash mexanizmini optimallashtirish yo'llari va usullarini tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

Mamlakatimiz demokratik qiyofasini yaratish, jamiyatimizda yangi ma'naviy makonni barpo etish hamda fuqarolik jamiyati qurishning mafkuraviy tamoyillarini mustahkamlash, mafkuraviy immunitetni mustahkamlash va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashga oid islohotlar olib borilmoqda. "... mamlakatimiz hayotining barcha sohalarini g'oyaviy himoyalash ishlari zamon talablari, islohot va yangilanishlar sur'atidan ortda qolmoqda va bu tashvishli hol, albatta. Ushbu masalalarni o'rganish borasidagi ilmiy tadqiqotlar esa, tor doirada amalga oshirilmoqda. Ularning ba'zilar hozirgi hayot voqeligi va uning talablaridan uzilib qolgani, ayrimlarining natijalari amaliyotga sust joriy etilyotgani ham kutilgan samarani bermayapti"¹. Shu bois Yangi O'zbekiston ma'naviy makoniga xos milliy va umuminsoniy jihatlar, ijtimoiy-falsafiy omillar va tamoyillar dialektikasi, konstruktiv tendensiyalar, amaliyot dinamikasi va transformatsiyasi hamda mamlakatimiz ma'naviy makoniga kirib kelishga va uni parokanda qilishga intilayotgan buzg'unchi g'oyalarga zarba berish imkoniyatlarini hamda optimallashtirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: "O'zbekiston", 2021. – Б.293

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmonlari, 2017 yilning 28 iyuldagi PQ 3160-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risidagi”, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizmini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora tadbirlari to‘g‘risida”, 2018 yilning 28 noyabrdagi PQ-4038-son “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi”, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi 23-son “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Yurtimizda yangi ma’naviy makonni yaratish masalalariga doir muhim fikrlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning asarlarida, qarorlari va farmonlarida o‘z aksini topgan². Gans Kyungning qarashlari asosida 2002 yilda “Global axloq to‘g‘risidagi Deklaratsiya” qabul qilinishi, YUNESKOning fan va texnikaning axloqiy muammolari bo‘yicha Komissiya (KOMENT) boshchiligida “Kosmosni o‘rganish axloq Kodeksi”, “Bioetikaning umumiy normalari to‘g‘risida Deklaratsiya”, “Olimlar axloq Kodeksi”, “Atrof-muhit axloq Kodeksi” kabilar zamonaviy jamiyatlarda ma’naviy-axloqiy taraqqiyot tamoyillari belgilab berilgan muhim xalqaro hujjatlar hisoblanadi³.

Jahonda ma’naviy makondagi ozgarishlar dinamikasi bilan bog‘liq masalarni o‘rganishda ko‘proq ma’rifat va axloq masalalariga diqqat qaratgan Z.Freyd, E.Fromm, Y.Xabermas kabi olimlarning qarashlari ham muhim ahamiyatga ega. Ularda global etika muammolarini ilmiy-amaliy jihatdan hal qilish masalalari jamiyat ma’naviy makonidagi o‘zgarishlarning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida

² Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. 4-jild. -Toshkent: "O‘zbekiston", 2020. – 456 b.; Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz. 6-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2023. – 520 b.; Mirziyoyev Sh.M. Bir bo‘lsak – yagona xalqmiz, birlashsak – vatanmiz. 8-jild. - Toshkent, "O'zbekiston", 2024. - 344 b.; Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. - Toshkent. O'zbekiston, 2022. - 416 b.; Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. -Toshkent: "O'zbekiston", 2024. - 560 b.

³Қаҳҳорова М. Жамятда маънавий-ахлоқий муҳит: муаммо ва ечимлар. Фалсафа фанлари доктори илмий даражаси учун дисс-я автореферати. –Т.: ЎЗМУ, 2012. –Б.4-5.

tadqiq etilgan. E.To'ffler, M.Xorkxaymer, A.Zinovev, B.Bessonov, E.Starikov asarlarida totalitar va avtoritar rejimlarning jamiyat ma'naviy makoniga ta'siri, ularning mafkuralari aks etishi bilan bog'liq mavzular o'rganilgan. K.Manngeym asarlarida ma'naviy taraqqiyotning g'oyaviy asoslari va mafkuraviy tamoyillari, turli maqsad va muddaolarini ko'zlaydigan siyosiy va nodavlat tuzilmalar, totalitar va avtoritar rejimlar hamda diniy tashkilotlarning bu boradagi faoliyatlarini o'rganishga qaratilgan nazariya va konsepsiyalarning mazmun-mohiyatiga alohida ahamiyat berilgan. XX asr oxiri va asrimiz boshlarida chet ellarda ma'naviy makon va uning taraqqiy etishi mexanizmlari bilan bog'liq turli masalalar tahlil etgan M.Veber, R.Joe Feagin, E.Aronson, R.Brown, O.Horowitz kabi olimlarning asarlarini alohida ta'kidlash lozim. G'arb jamiyatidagi ma'naviy makon bilan bog'liq jarayonlar va muammolar tahlilida Z.Bjezinskiy, F.Fukiyama va S.Xantingtonlarning asarlari ham o'z o'rniga ega⁴.

Mazkur yo'nalishda mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan M.Koroleva va T.Rednokov jinoyatchilik tashkilotlarining jamiyatdagi ma'naviy muhitga ta'siri masalasini o'rganib, unga qarshi kurash mexanizmlarini barafsi tahlil qilganlar. T.Podshivalova, E.Titavoy, E.Gromavoy hozirgi raqamli dunyoda shaxslarning ma'naviy va ma'rifiy huquqlari va burchlari haqida to'xtalib o'tganlar. N.Berdyayev, T.Mamitov, P.Grechko zamonaviy postmodern davrda intellektual yondashuvlarning jamiyatdagi g'oyaviy kurashlarga ta'siri masalasini, B.Ilin jamiyatdagi mavjud ijtimoiy ong masalalarini o'rgangan⁵.

O'zbekistonlik olimlardan E.Yusupov, B. To'rayev, S.Shermuhammedov, A.Erkayev B.To'ychiyev, S.Otamurodov, I.Saifnazarov, O'.Abilov, Q.Nazarov, I.Ergashev, Sh.Madayeva, F.Musayev, B.Nomozov, A.Sharipov, A.Huseynova, S.Choriyev va M.Norqobilov kabi olimlar asarlarida muhim fikr va mulohazalar bayon qilinganini alohida ta'kidlashimiz lozim albatta⁶.

⁴ Фрейд З. Массовая психология и анализ человеческого «Я»/ М.: «Московский рабочий», 1990.; Фромм, Э. Анатомия человеческой деструктивности. Минск:1. Харвест", 1998.; Хабермас Ю. Техника и наука как идеология. СПб.: «Пневма», 1999.; Хоркхаймер М., Адорно, Т. Психоанализ антисемитизма // Психология национальной нетерпимости Минск: «Харвест», 1998. - С. 114-173.; Шпенглер О. Закат Европы. СПб: «Пневма»,1998.; Хэмоуэл Дж.Х. Моральные основания демократии. – М.: АСТ, 1993. – С. 14 – 30; Парсонс Т. Система современных обществ. – М.: Аспект Пресс, 1998. – 277 с.; Даллемар Ф. Глобальная Этика: преодоления дихотомии «универсализм»– «партикуляризм» // Вопросы философии. 2003. – №3. – С. 17 – 29.; Хоркхаймер М., Адорно, Т. Психоанализ антисемитизма // Психология национальной нетерпимости Минск: «Харвест», 1998. - С. 114-173.; Бессонов Б.М. Фашизм: идеология, политика. М.: 1995; Зиновьев А.А. Коммунизм как реальность / М.:1. Центрполиграф», 1994; Бжезинский З. Великая шахматная доска / СПб.:1. Пневма», 1998; Мангейм К. Идеология и утопия. М.: «Терра», 1997.; Aronson E. The Social animal. Seventh edition. W.H. Freeman and Co. New York, 1995.,Brown R. The Social Psychology. The Second Edition. –New York., Descamps M. a le language de corps el la communication corporelle. – Paris, PVF-1993., Feagin Joe R. Racial and ethic relations. 2-ed. 1989.,Horowitz O. Ethic Groups in conflict. University of California Press. Berkley, Los Angeles, London. 1986., SamuelnP. Huntington. "The clash of civilizations and the remaking of world order". - –New York., 1996;

⁵ Королева М.В, Мацкевич И.М, И.М. Мацкевича, Т.В. Редников.Проблемы борьбы с организованной преступностью (учебное пособие) - "Проспект", 2021 г.; Т.П. Подшивалова, Е.В. Титовой, Е.А. Громовой. Право цифровой среды (монография) "Проспект", 2022; Бердяев Н.А. Футуризм на войне (Публицистика времен Первой мировой войны). - Москва: Канон. 2004. - С.383.; Мамытов Т.Б. Исломская прововая культура против терроризма экстремизма и радикального рилегиозного фундаментализма. М., 2018. С.168.9; Гречко П. Интеллектуальный импорт или о периферийном постмодернизма// Общественные науки. –М., 2019. №2. - С.117.' Ильин В.В. Теория познания. Социальная познания. Социальная эпистемология. Социология знания: монография. - Москва: Академический проект: 2014.С.-204

⁶ Юсупов Э. Инсон камолотининг маънавий асослари. –Т.: Университет, 1998. –Б.184.; Шермухамедов С.

Yuqoridagilardan kelib chiqib jahonda va mamlakatimizda dissertatsiya mavzusiga doir ilmiy ishlar amalga oshirilayotgani va uning bir qator jihatlari o'rganilayotganligini kuzatamiz. Ayni paytda, mamlakatimizda shakllanayotgan yangi ma'naviy makon va uning o'ziga xos xususiyatlari, yurtimiz ma'naviy makonida ro'y berayotgan inkor va vorislik dialektikasi, bu boradagi jarayonlar transformatsiyasiga doir masalalarni har tomonlama chuqur o'rganish zarurati ortib bormoqda. Ushbu dissertatsiya ishida mazkur zaruratni amalga oshirishga, uni yangi pozitsiyadan tadqiq etishga e'tibor qaratilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Termiz davlat universitetini rivojlantirish dasturi va va ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi 2.4-band "Yangi O'zbekiston ijtimoiy-ma'naviy muhitini yaratishda falsafiy fikrlarning ahamiyati" (2017-2030 yy) tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi yangi O'zbekiston jamiyatining zamonaviy ma'naviy makonining ijtimoiy-ma'rifiy asoslari hamda uni takomillashtirish imkoniyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

"ma'naviy makon" tushunchasining nazariy va ilmiy asoslarini hamda unga xos tamoyillarning mazmun-mohiyati va ta'sirchanlik xususiyatlarini tadqiq qilish;
yangi ma'naviy makonni barpo etish va takomillashtirish yo'llari va imkoniyatlarini ochib berish;

ma'naviy makon sofligini saqlash va uni buzg'unchi g'oya va mafkuralardan asrash usullari va vositalarini aniqlashtirish;

umuminsoniy va milliy qadriyatlar dialektikasining yangilanib borayotgan yurtimiz hayotining muhim omili sifatidagi ahamiyatini asoslash;

Yangi O'zbekiston ma'naviy makonini yanada yangi bosqichga ko'tarish mexanizmining samarasini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida Yangi O'zbekistonga xos ma'naviy makonni shakllantirish tamoyillari va imkoniyatlari, bu boradagi islohotlar amaliyoti tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini yangilanayotgan jamiyatimiz ma'naviy makonining o'ziga xos jihatlari va namoyon bo'lish xususiyatlari, siyosiy-huquqiy

Инсон фалсафаси. –Т.: Фан, 2007. –Б.70.; А.Эркаев. Маънавият – миллат нишони. –Т., "Маънавият", 1997. – Б.46-47; В.Туъчиёев, I.Ergashev, O.Muhammadiyeva, M.Xujayev. Milliy g'oya: O'zbekisrin rivojlanish strategiyasi.(O'quv qo'llanma) T.: 2020. –B.180; Otamurodov S. Markaziy Osiyo, g'oyaviy jarayonlar va mafkuraviy tahdidlar. - Toshkent : Ijod dunyosi nashriyot uyi, 2002. - 31 b.; I. Saifnazarov. Ma'naviy barqarorlik va siyosiy madaniyat. T.:Sharq, 2001. –B.145; Abilov O'. O'zbekiston taraqqiyotining optimistik ruhi: ma'naviy-mafkuraviy, g'oyaviy jihatlari. – T.: Istiqlof, 2013. - 207 b.; Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. 1-2 kitoblar. – Toshkent: "Ma'naviyat" nashriyoti, 2019.; Эргашев И. Демократия – миллий ва умумбашарий қадрият // Жамият ва бошқарув. –Тошкент, 2004. -№ 1. –Б.12-13.; Мадаева Ш.О. Миллий менталитет ва демократик тафаккур: (XX асп сабоқлапи ва XXI асп истиқболлари). –Тошкент: : Фалсафа ва ҳуқуқ институти нашриёти, 2007. – Б.482.; Ф.Мусаев.Демократик давлат қуришнинг фалсафий-ҳуқуқий асослари. –Т.: "Ўзбекистон", 2007. То'райев. Borliq (falsafiy tahlil) (o'quv qo'llanma). – Samarqand: Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi, 2022.-B. 283. B. Nomozov.Muhammad Porsoning falsafiy ta'limoti.(monografiya). –Т.:Mumtoz,2015.- B. 176. Sharipov.A. Ijtimoiy falsafa.(o'quv qo'llanma).- Buxoro, 2015. –B.216. M.Norqobilov. Ijtimoiy kapital-milliy hamjihatlikni ta'minlash manbai. Fal.fan.fal.dok(PhD)diss...avtoref. Buxoro 2022. –B. 64. S.Choriyev. Siyosiy ijtimoiylashuv.- Qarshi -2024.-B.115.

asoslari va iqtisodiy omillari hamda uning shakllanishiga ta'sir etuvchi institutsional tuzilmalarning faoliyatini tadqiq etish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada analiz va sintez, kompleks yondashuv, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, dialektik, sinergetik, sotsiometrik tahlil kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“ma’naviy makon” tushunchasi mustaqil ijtimoiy-falsafiy kategoriya sifatida ma’naviy qadriyatlar tizimini, madaniy-axloqiy muhitni, xulq-atvor normalarini belgilashi tavsiflangan hamda uning barqarorlik va yangilanuvchanlik (qadriyatlar uzluksizligi va yangilanishida optimal muvozanat), o‘zgaruvchanlik va vorisiylik (tarixiy-madaniy meros bilan bog‘liqlik va ijtimoiy o‘zgarishlarga moslashuvchanlikni ta’minlanishi) tamoyillari va intensivlik va innovatsion (sifat jihatidan boyib borishi, kreativ fikrlash, zamonaviy madaniy tendensiyalarni qabul qilish va integratsiyalash) xususiyatlari ochib berilgan;

Yangi O‘zbekiston ma’naviy makoniga xos milliy va umuminsoniy jihatlar (bag‘rikenglik, hamjihatlik, Vatanga muhabbat va sadoqat, mehnatsevarlik, halollik va tolerantlik, demokratiya, ochiqlik va gumanizm integratsiyasi) dialektikasi, unga ta'sir ko'rsatayotgan omillarning (modernizatsiya, globallashuv, raqamli transformatsiya), konstruktiv tendensiyalarning (ma'naviy uyg'onish, ilm-fan va ta'lim paradigmasining yangilanishi) dinamikasi va transformatsiyasi asoslab berilgan;

hozirgi davrda mamlakatimiz ma'naviy makoniga kirib kelishga va uni parokanda qilishga intilayotgan buzg'unchi g'oyalar – ksenofobiyaning birdamlik totuvlikni parchalashga intilish, radikalizmning jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy asoslarini zaiflashtirish va terrorchilik mafkurasining davlat tuzumini izdan chiqarishga qaratilgan g'oyaviy-psixologik manipulyatsiya sifatidagi mohiyati hamda ularga zarba berishning qadriyatlar tizimini mustahkamlash, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni kuchaytirish, axborot xavfsizligini ta'minlash va profilaktik choralarni takomillashtirish kabi imkoniyatlari aniqlashtirilgan;

xalqimiz ma'naviy makonini sofligini saqlash mexanizmini optimallashtirishga xos ma'naviy monitoring tizimini takomillashtirish (buzg'unchi g'oyalarni erta aniqlash, tahlil qilish, qarshi chora ko'rish), raqamli platformalarda ma'naviy himoya qilish (kontentlarga nisbatan tahliliy va normativ nazoratni kuchaytirish, milliy qadriyatlarni targ'ib qiluvchi kontentlar ishlab chiqish va tarqatish), milliy g'oya asosidagi media strategiyalar ishlab chiqish (yoshlar ongida bunyodkor mafkurani shakllantiruvchi loyihalar, media savodxonlikni oshirish) yo'llari va usullari samarasini oshirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“ma’naviy makon”ning muayyan ijtimoiy subyektning o‘ziga xos ma’naviy olami, xususiyatlari, an’ana, urf-odatlar, qadriyatlari va mentalitetini o‘zida aks ettiruvchi, uning o‘zligini belgilovchi intellektual va ruhiy olamini ifodalaydigan falsafiy tushuncha sifatidagi ahamiyati ochib berilgan;

ma'naviy makonning ta'sir ko'rsatish va tarbiyalash (jamiyatni o'zgarishlar sari yetaklaydigan va kreativ fikrlovchi yangi avlodni tarbiyalash), himoyalash va moslashuv (insonning jamiyat bilan munosabatlari va atrof-muhit o'rtasidagi

muvofiglikni saqlash), semantik-signifikativ (tushuncha va tamoyillar tizimini ishlab chiqish) kabi funksiyalarining amal qilishi hamda jamoaviylik, umuminsoniylik va milliylik, tarixiylik va zamonaviylik, ananaviylik va vorisiylik, insonparvarlik va bag'rikenglik kabi tamoyillari asoslangan;

yurtimiz ma'naviy makoni sofligini saqlash va uning transformatsiyasini samarali amalga oshirishda targ'ibotning "turli yorliqlardan foydalanish" (name calling), "porlab turuvchi muloqotlar" yoki "yarqiragan mavhumlik" (glittering generality), "ko'chirib o'tkazish" (transfer), "obro'-e'tiborga tayanish", "tavsiyasi bo'yicha", "dalolat berishicha" yoki "shahodatlash" (testimonial), "umumiy platforma" yoki "orkestrli furgon" (band wagon) kabi jozibador bo'lgan zamonaviy usullaridan foydalanishga oid tavsiyalar ishlab chiqilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar zamonaviy manbalar, faktlar, statistik ma'lumotlarga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definitsiyasi ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab chiqilganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o'tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo'yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo'lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ilgari surilgan konseptual g'oyalardan yangi ma'naviy makonni yaratish tamoyillarining konseptual asoslari va imkoniyatlarini aniqlash, falsafiy va sotsiologik talqinini chuqurlashtirish, ma'naviy-axloqiy rivojlanishning jamiyat barqarorligiga ta'sir etish mexanizmlarini yangi g'oyalar va xulosalar bilan boyitishda nazariy manba sifatida, shuningdek, mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan jamoalardagi funksional vazifalar samaradorligini oshirishga qaratilgan konseptual yondashuvni yaratishda, ushbu yo'nalishdagi ilmiy-tadqiqot ishlarini faollashtirish, bu boradagi yutuqlar va natijalarni keng targ'ib va tashviq qilishda metodologik asos sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati mamlakatda olib borilayotgan islohotlarning samaradorligini oshirishga, davlat siyosatining ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishini takomillashtirish va yangi strategiyalarni ishlab chiqishda, yoshlar tarbiyasi, ta'lim va madaniyat sohalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturlarni yaratish va takomillashtirishga, milliy g'oya targ'iboti, ma'naviyat va ma'rifat sohasida faoliyat yurituvchi tashkilotlarning institutsional rivojlanishiga, bu boradagi amaliy loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirishda, vazirliklar va idoralar, yoshlar bilan ishlash tashkilotlarining samaradorligini oshirishda, "Uzluksiz ma'naviy tarbiya" konsepsiyasini amalga oshirish orqali ma'naviy tarbiya tizimini yanada rivojlantirishda, shuningdek, "Falsafa", "Dinshunoslik", "Ma'naviyatshunoslik" kabi fanlarning mazmunini boyitishda, talabalar bilan uyushtiriladigan "Besh muhim tashabbus" tadbirlarini tashkil etishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida yangi ma'naviy makonni yaratish tamoyillari va imkoniyatlarini tadqiq etish bo'yicha olingan natijalar asosida:

“ma’naviy makon” tushunchasi mustaqil ijtimoiy-falsafiy kategoriya sifatida ma’naviy qadriyatlar tizimini, madaniy-axloqiy muhitni, xulq-atvor normalarini belgilashi tavsiflangan hamda uning barqarorlik va yangilanuvchanlik (qadriyatlar uzluksizligi va yangilanishida optimal muvozanat), o‘zgaruvchanlik va vorisiylik (tarixiy-madaniy meros bilan bog‘liqlik va ijtimoiy o‘zgarishlarga moslashuvchanlikni ta’minlanishi) tamoyillari va intensivlik va innovatsion (sifat jihatidan boyib borishi, kreativ fikrlash, zamonaviy madaniy tendensiyalarni qabul qilish va integratsiyalash) xususiyatlariga doir xulosa va umumlashmalar O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati tomonidan nashr qilingan “Jahon falsafasi qomusi” hamda “Ekstremizm va terrorizm profilaktikasining zamonaviy omillari va texnologiyalari” mavzusidagi grant loyihasi doirasida nashr qilingan “Ekstremizm va terrorizm profil aktikasining zamonaviy texnologiyalari” kitoblarning mazmuniga singdirilgan. (O‘zbekiston Faylasuflari milliy jamiyatining 2024-yil 15-iyundagi 36-son ma’lumotnomasi). Natijada, nashr etilgan kitoblarning mazmunini boyitishga, “Vatanparvarlik” “Ma’naviy makon”, “Ma’naviy tarbiya” kabi maqolalarining zamonaviy talqinlarini ochib berishga xizmat qilgan;

Yangi O‘zbekiston ma’naviy makoniga xos milliy va umuminsoniy jihatlar (bag‘rikenglik, hamjihatlik, Vatanga muhabbat va sadoqat, mehnatsevarlik, halollik va tolerantlik, demokratiya, ochiqlik va gumanizm integratsiyasi) dialektikasi, unga ta’sir ko‘rsatayotgan omillarning (modernizatsiya, globallashuv, raqamli transformatsiya), konstruktiv tendensiyalarning (ma’naviy uyg‘onish, ilm-fan va ta’lim paradigmasining yangilanishi) dinamikasi va transformatsiyasiga oid taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi Vatanga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash hamda yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, iqtidorini ro‘yobga chiqarish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha loyihalarini ishlab chiqishda, jumladan 2024-yil birinchi yarim yillik ish rejasining “Yoshlarni yot g‘oyalar ta’siridan himoya qilish, ularda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash maqsadida tegishli mutaxassislarni jalb qilgan holda “Jaholatga qarshi ma’rifat” g‘oyasi ostida turkum targ‘ibot-tashviqot tadbirlarini tashkil etish”ga qaratilgan 21-bandi ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2024-yil 10-iyuldagi 3-16-21-3637- son ma’lumotnomasi). Natijada, yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularni Vatanga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash hamda yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, iqtidorini ro‘yobga chiqarish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan loyihalar samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

hozirgi davrda mamlakatimiz ma’naviy makoniga kirib kelishga va uni parokanda qilishga intilayotgan buzg‘unchi g‘oyalar – ksenofobiyaning birdamlik totuvlikni parchalashga intilish, radikalizmning jamiyatning ma’naviy-ma’rifiy asoslarini zaiflashtirish va terrorchilik mafkurasining davlat tuzumini izdan chiqarishga qaratilgan g‘oyaviy-psixologik manipulyatsiya sifatidagi mohiyati hamda ularga zarba berishning qadriyatlar tizimini mustahkamlash, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni kuchaytirish, axborot xavfsizligini ta’minlash va profilaktik choralarni takomillashtirish kabi imkoniyatlariga doir amaliy taklif va tavsiyalardan

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2022-2023 yillarda o'tkazilgan targ'ibot faoliyatida, jumladan 2023-yil uchun chora-tadbirlar dasturining III yo'nalishida belgilangan "G'oya va mafkura masalasi hamda ilm - fan va ma'rifat targ'iboti" 13-bandi "Yangi ma'naviy makonni shakllantirishning dolzarb masalalari, bu borada ma'rifatparvar, ziyolilar, davlat va jamoat faollarini birlashtirish hamda "Yangi O'zbekiston orzusi"ni ro'yobga chiqarish bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil etish"da foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2024-yil 11-iyuldagi 10/19-son ma'lumotnomasi). Natijada, O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida ma'naviy makonni yaratish tamoyillari va imkoniyatlarning o'ziga xos xususiyatlarini boyitishga xizmat qilgan.

xalqimiz ma'naviy makonini sofligini saqlash mexanizmini optimallashtirishga xos ma'naviy monitoring tizimini takomillashtirish (buzg'unchi g'oyalarni erta aniqlash, tahlil qilish, qarshi chora ko'rish), raqamli platformalarda ma'naviy himoya qilish (kontentlarga nisbatan tahliliy va normativ nazoratni kuchaytirish, milliy qadriyatlarni targ'ib qiluvchi kontentlar ishlab chiqish va tarqatish), milliy g'oya asosidagi media strategiyalar ishlab chiqish (yoshlar ongida bunyodkor mafkurani shakllantiruvchi loyihalar, media savodxonlikni oshirish) yo'llari va usullari samarasini oshirishga oid ilmiy yangilik, nazariy xulosalar va amaliy takliflardan O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan A-OT-2021-132-raqamli "Surxon vohasi tarixiy va etnomadaniy manbaalariga oid "i-Turizm" platformasini ishlab chiqish" (2021-2023 yy) innovatsion loyiha doirasida belgilangan vazifalarni bajarishda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy universitetining 2024-yil 1-avgustdagi 04/11-5996-son ma'lumotnomasi). Natijada, Yangi O'zbekistonda milliy g'oya va etnik qadriyatlar, milliy mentaletitga xos omillar va tamoillar bo'yicha takliflarni ishlab chiqishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 7 ta ilmiy maqola (5 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya umumiy hajmi 138 betdan iborat.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning "**Kirish**" qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog'liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekti, predmeti tadqiqotda qo'llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va

amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Ma'naviy makon” kategoriyasi bilan bog'liq tayanch tushunchalarni nazariy-metodologik tadqiq etishning ijtimoiy-falsafiy masalalari**” deb nomlangan birinchi bobida “ma'naviy makon” tushunchasi, uning mazmun-mohiyati va namoyon bo'lish xususiyatlari hamda o'zbek ma'naviy makonining o'ziga xos xususiyatlari va ijtimoiy-falsafiy jihatlarini tadqiq etilgan. Tobora yangilanib borayotgan O'zbekistonda “yangi ma'naviy makon” iborasining tez-tez qo'llanilayotgani, hozirgi davr tadqiqotchilari uchun “ma'naviy makon” tushunchasi bilan bog'liq masalalarni chuqur o'rganish zarurati asoslab berilgan. Bu boradagi amaliy ishlar mexanizmini yanada takomillashtirish bo'yicha nazariy jihatdan asoslangan va yangi davr talablariga javob bera oladigan takliflar va tavsiyalar ishlab chiqish o'ta dolzarb masala sifatida ochib berilgan.

“Ma'naviy makon” tushunchasini tavsiflashda unga xos jamoaviylik, umuminsoniylik va milliylik, tarixiylik va zamonaviylik, an'anaviylik va vorisiylik, insonparvarlik va bag'rikenglik kabi tamoyillarning alohida ahamiyatga molikligini ta'kidlash lozim. Dissertatsiyada “ma'naviy makon” tushunchasi, uning strukturasi shuningdek bugungi kunda xalqimizning ma'naviy hayoti, uning shakllanganlik va rivojlanganlik darajasini, bu boradagi statik va dinamik ko'rsatkichlar va tamoyillar, ijtimoiy funksiyalari orqali namoyon bo'lish masalalariga munosabat va ta'riflari keltirilgan. Jumladan, *“Ma'naviy makon” muayyan ijtimoiy subyekt, ya'ni shaxs, guruh, qatlam, millat, xalq va boshqalarning o'ziga xos ma'naviy olami, xususiyatlari, an'ana, urf-odatlarini, qadriyatlarini va mentalitetini o'zida aks ettiruvchi, uning o'zligini belgilovchi intellektual va ruhiy olamini ifodalaydigan falsafiy tushunchadir*” – deb keltirilgan hamda ma'naviy makonning ijtimoiy funksiyalari quyidagi shakllarda namoyon bo'lishi asoslab berilgan:

- *ta'sir ko'rsatish va tarbiyalash funksiyasi* - har bir inson farzandini voyaga etishishi va kamalotga erishishi, uning ma'naviy qiyofasida ezgu g'oyalarga hos hislatlar shakllanishida yordam beradi;

- *himoyalash va moslashuv funksiyasi* - har bir kishining tabiiy shart sharoitlar va ijtimoiy muhitga nisbatan yangi himoya va moslashuv vositalarini ishlab chiqarishga va ko'niktirishda odom zotining omon qolishi hamda samarali hayot kechirishini ta'minlaydi;

- *semantik-signifikativ funksiya* - ma'naviy makonga xos tushuncha va atamalar belgi va ma'no, nomlar va mavzular, timsollar va tamoyillar tizimini ishlab chiqish va ushbu sohadagi faolyatini amalga oshirish vositasi sifatida namoyon bo'ladi;

- *kommunikativ funksiya* - turli ijtimoiy-ma'naviy aloqa almashinuvi, xilma-xil munosabatlar jarayonida insonning mohiyati va o'zligini saqlash, hayoti davomida bilimlar, fikrlar, ma'naviy qadriyatlarni o'zaro almashtirish asnosidagi faolyatni belgilaydi;

- *mezoniy-me'yoriy funksiya* - ongli shaklda o'rnatilgan yoki ko'p asrlik an'analarga tayanuvchi huquqiy, axloqiy mezon va me'yorlar mavjudligini ta'minlaydi, jamiyat hayoti va ma'naviyatini barbod qilmasligi uchun kishilar faolyatini tartibga solish va uni aniq chegaralar bilan belgilashga yordam beradi;

- *psixologik funksiya* - ruhiy zo'riqlashlar va norozilik kayfiyatlari, radikal tafakkur tamoyillari kuchayishini oldini olishda, nopok xayollar va keraksiz hissiyotdan xalos bo'lish mexanizmini ishlab chiqish faoliyatida foydalaniladi;

- *regulyativ funksiya* - inson faoliyati va odamlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish, boshqarish va muvofiqlashtirishda, kishilarning ijtimoiy voqe'likka ko'nikishi uchun xizmat qiladigan turli axloqiy, estetik, diniy, siyosiy, huquqiy va qonun-qoidalar, talablar va tartib shakllarida namoyon bo'ladi.

Dissertant fikricha, ma'naviy makonning ushbu funksiyalari tarixiy taraqqiyotning barcha bosqichlarida mavjud bo'ladigan va takomillashib boradigan ijtimoiy hodisa sifatida o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Tadqiqotda xalqimizga xos milliy ma'naviy makonning muhim jihatlari ochib berilgan. O'z millati uchun jon kuydiruvchi kishi o'z millatining yutuq va tarixiy xizmatlaridan faxrlanadi, ammo har qadamda unga tanqidiy ko'z bilan boqib, undagi illatlarni tozalashga, nuqsonlarni bartaraf etishga chaqiradi. Bu jarayonda faol qatnashadi va shu yo'lda o'z millatining rivojlanishini tezlashtiradi. O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga ko'ra, islohotlar yangi ma'naviy makonni yaratish salmog'ini to'la tushunish uchun tobora globallashtirib borayotgan dunyoning misli ko'rilmagan sur'atlar bilan keskin o'zgarib borayotgani, yangi jarayonlar ro'y berayotganiga alohida e'tibor berish zarurati paydo bo'lmoqda⁷. Jamiyatdagi tinchlik va barqarorlik, islohotlar kelajagi va taqdiri uchun nihoyatda muhim bo'lgan bunday murakkab vaziyatda xalqimizni zararli va buzg'unchi g'oyalar ta'siridan asrash hozirgi davrimizning eng dolzarb vazifalaridan biriga aylangani shubhasiz.

Yurtimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdek ezgu maqsadni izchil amalga oshirishga qaratilgan yangi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi hozirgi davr talabi va taqozosi, jamiyatimizning rivojlanish omillari va tamoyillarini belgilaydigan faoliyat dasturiga aylanganidan dalolat beradi. Prezidentimizning bu boradagi faoliyati esa ana shu yo'nalishdagi faoliyatning dolzarb vazifalarini aniq-tiniq belgilab berilgan hujjat hamda ishlarimizning samarali amalga oshirishini ta'minlash mezonini sifatida nihoyatda katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Zero, "Ma'naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak"⁸.

Mamlakatimizda ma'naviyat sohasi samarasini ta'minlashga, ushbu serqirra jarayonning quyidagi jihatlari alohida e'tibor qaratish kerak:

- jamiyatimiz ma'naviy makonini har tomonlama taraqqiy ettirish bo'yicha amalga oshirilayotgan faoliyatning ustuvor tendensiyasi va takomillashuvini namoyon qiladigan amaliy ishlarning yaqqol natijasi sifatidagi ahamiyatini ko'rsatish;

- O'zbekistonning yangi qiyofasini yaratish va mamlakat hayotini yangilashga ustuvor darajada ahamiyat berilayotgan tub islohotlar va o'zgarishlar jarayonida xalqimiz ma'naviyatini yangi bosqichga ko'tarish va uning taraqqiyotini ta'minlashning zamonaviy mexanizmlarini shakllantirishning samarali vosita va yo'nalishlarini aniqlash.

⁷ Абдумаликов А. Фуқаролик жамиятини ривожлантириш шароитида шахс инфор­мацион маданиятини шакллантириш: фалсафа доктори (PhD) дисс. – Т., 2017. – Б.37

⁸ Prezident: Ma'naviyat boshqa sohalardan oldinda yurishi, yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak. 22.12.2023 // <https://president.uz/oz/lists/view/6941>

Dissertant mulohzalariga ko'ra, "ma'naviy makon" tushunchasining kontseptual mohiyati jamiyatning tarixiy taraqqiyotida shakllangan, inson ongida ifodalanuvchi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tashkil topgan g'oyaviy-mafkuraviy, axloqiy-estetik, madaniy-intelektual fazo ekanligida namoyon bo'lib, u identitetni shakllantiradi va mustahkamlaydi, ma'rifat esa ma'naviy makonni boyituvchi kuchdir. "Ma'naviy makon" kategoriyasi zamonaviy O'zbekiston jamiyatining ijtimoiy-falsafiy barqarorligini, ideologik va madaniy mustaqilligini ta'minlovchi strategik tushuncha hisoblanadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**O'zbekistonda yangi ma'naviy makonni barpo etishning asosiy omillari va shart-sharoitlari**" deb nomlangan va unda o'zbek ma'naviy makoni yangilanishining siyosiy asoslari va iqtisodiy omillari hamda uni yaratishning ijtimoiy-ma'rifiy omillari tadqiq etilgan.

Yangilanishlar va modernizatsiya sharoitida siyosiy sohada, ayniqsa davlat boshqaruvida amalga oshirilgan islohotlar va bu boradagi o'zgarishlar mamlakatimizda zamonaviy ma'naviy makonni yaratishning nihoyatda muhim omillaridan biridir. Har qanday mamlakat o'zining transformatsion jarayonlarini samarali amalga oshirishi va o'z maqsadiga erishishi uchun, avvalo, jamiyatda tinchlik va barqarorlikni saqlashga qodir, operativ faoliyat ko'rsatish vakolatlariga ega, institutsional jihatdan yaxshi tashkil qilingan ijro hokimiyatiga zarurat sezishi tabiiy.

Dissertatsiyada hozirgi davrda yer yuzining turli mintaqalari turli sinov maydoniga, siyosiy va mafkuraviy poligonga aylantirilayotganligi va bu har bir jahon mamlakatining ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy makoniga katta ta'sir ko'rsatayotganligi qayd etiladi. Ana shunday sharoitda xalqimizning barcha qatlamlari ongida obyektiv voqelikni to'liq va to'g'ri aks ettirish, jamiyatimiz taraqqiyotiga, Vatan va xalq manfaatlariga, milliy qadriyatlarimizni saqlashga xizmat qiladigan moddiy va ma'naviy asoslarni kuchaytirish nihoyatda muhim ahamiyatga ega. XX asr ikkinchi yarmida, bor-yo'g'i ikki-uch o'n yillikda shakllangan hamda bugungi insoniyatning eng asosiy va shafqatsiz muammosi hisoblanadigan ma'naviy tanazzul balosi bunday tarixiy va tabiiy jarayonlar oqibati bo'lmaganini esdan chiqarmaslik lozim⁹. Eng rivojlangan mamlakatlar ham barham bera olmayotgan ma'naviy tanazzul balosi aynan o'sha, bundan 60-70 yil ilgari ishlab chiqilgan ma'naviyatsizlik va g'oyasizlik texnologiyalarining oqibati ekani bugun ko'pchilikka ayon.

Bu jihatdan, "Yangi O'zbekiston uzluksiz ta'lim tizimini gumanitarlashtirish strategiyasi" yaratilishi va amaliyotga joriy etilishi maqsadga muvofiq. Bu hujjatlarning barchasi, mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning huquqiy asoslarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladigan "Ta'lim-tarbiya kodeksi"ni yaratish lozim. Bugungi kunda ayni shu ehtiyoj:

birinchidan, jadid bobolarimiz falsafiy merosini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan har tomonlama va chuqur o'rganish, ayni shu asosda o'zbek falsafasini yangi davr talablari darajasiga chiqishiga erishish;

⁹ Qarang: Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va forovon yashaylik. 5-jild. – Toshkent: "O'zbekiston", 2023.

ikkinchidan, Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida xalqimizning jadidlar orzu qilgan zamonaviy dunyoqarashi va islohotchilik tafakkurini shakllantirish;

uchinchidan, yangi jadidlar avlodini tarbiyalash va islohotchi ziyolilar safini yanada kengaytirish, shu asosda yangi islohotchi yoshlar avlodini voyaga yetkazish;

to'rtinchidan, kreativ va sotsial tamoyillarini ishlab chiqib, amaliyotga joriy etish yo'llari va imkoniyatlari to'g'risida taklif va tavsiyalar tayyorlashni tizimli yo'lga qo'yish zaruratini davr talabiga aylantirdi.

Ma'lumki, odam o'z hayot yo'li davomida hosil qilgan va yillar davomida shakllantirgan ma'naviyatini va jamiyatning bir bo'lagi hisoblangan shaxs sifatida kamolotga yetish davomida umrining so'nggi damiga qadar rivojlantirishdan to'xtamaydi. Uning ma'naviy qiyofasi butun ongli faoliyati davomida muttasil takomillashib boradi. Keyingi yillarda mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirish va yangi tadbirkorlar avlodini shakllantirishda aynan ana shu jihatga alohida ahamiyat qaratilayotgani aslo bejiz emas.

Tadqiqotda "tadbirkor ma'naviyati" tushunchasi o'zi nima va uning mohiyati imadan iborat? – degan savolga javob izlangan. Tadbirkor ma'naviyati shakllantirishda nimalarga alohida e'tibor qaratish kerakligi, o'zimizga mos va xos tadbirkor ma'naviyatini qanday shakllantirish mumkinligi izohlangan. "Tadbirkor ma'naviyati" tushunchasi har bir tadbirkorning ichki dunyosi va ruhiyati, ijtimoiy masuliyati, adolatni razillikdan, yaxshilikni yomonlikdan, oqillikni johillikdan ajrata bilish qobiliyati, o'z-o'zini anglashi, did-farosati va aql-zakovati hamda ularni amalga oshirish yo'lida ongli faoliyat ko'rsatishi, bunga xizmat qiladigan qobiliyati va intilishlari majmuini ifodalaydi¹⁰. Bu jarayon esa Yangi O'zbekistonda shakllangan yangi avlod, zamona talablariga javob bera oladigan, kreativ fikrlovchi yangi davr ishbilarmon tadbirkorlarining ma'naviy hayoti va qiyofasida yuz berishi mumkin bo'lgan turli xil hodisotlarga va ularni bog'lab turuvchi mexanizmlarni, asoslarni mantiqiy jihatdan to'g'ri anglab yetishda milliylik va umuminsoniylikka tayanishini tushinishi belgilaydi va anglatadi.

Dissertant fikrlariga ko'ra, tadbirkorlarning har qanday jarayonlarda mustaqil fikrlash va qaror qabul qilishda erkinliklari, mustaqilligi, o'z ishiga sidqidildan va ma'suliyat bilan yondashishi har qayday holatda ham boshqaruvni o'z zimmasiga ola bilishi kabi individual xislatlarni mujassamlashtirish va tarbiyalash uchun quyidagilarga alohida ahamiyat berish zarur:

- har bir tadbirkor hayotida turli vaziyatlarga tushib qolganida uning hayot mobaynida to'plagan tajribasi, insoniy fazilatlarini yetakchi rol o'ynaydi;

- tadbirkorlarda muammolar, voqea-hodisalarni real makon va vaqt chegaralarida aniq tasavvur qilish va yechimlarini belgilay olishni rivojlantirishga diqqatni qaratish ulkan yutuqlar omili bo'lishi mumkin;

- tadbirkorlar faoliyatida bir vaqtning o'zida bir qancha muammolar mohiyatini anglash orqali tafakkurni yangi muammolar yechimiga yo'naltirish ham foydadan xoli emas.

¹⁰ Jamolov L. Globallashuv va ma'naviy tahdidlar // "Globallashuv sharoitida vatanparvarlik tarbiyasining ma'naviy-ma'rifiy texnologiyalari" ilmiy konferensiya materiallari . – Toshkent: 2019. – B. 31.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, "Yangi O'zbekiston" konsepsiyasi ma'naviy yuksalish uchun sifat jihatdan yangi asos yaratdi. Yangi O'zbekistonning ma'naviy makoni zamonaviy siyosiy, ijtimoiy va madaniy sharoitda barpo bo'lmoqda. Bu makon – tarixiy xotira, milliy qadriyatlar va zamonaviy g'oyalarning uyg'unlashuvi asosida shakllanadi. Uni barpo etish uchun davlat siyosati, ijtimoiy ong, madaniy meros va iqtisodiy taraqqiyot o'zaro uyg'unlikda harakat qilishi zarur. Xalqimiz ma'naviyatiga ta'sir ko'rsatayotgan siyosiy va ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotdagi o'zgarishlar, tafakkur va dunyoqarashdagi yangilanishlar jarayoni bilan birga, amaliyotda o'zini oqlagan jahon tajribasini o'rganish davr talabiga aylandi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **"Globallashuv jarayonida yurtimizning ma'naviy makonini buzg'unchi g'oyalardan asrash yo'llari va imkoniyatlari"** deb nomlangan va bu bobda Yangi O'zbekistonning ma'naviy makonini mustahkamlash mexanizmlarini optimallashtirish yo'llari hamda ularni yanada takomillashtirish imkoniyatlari tahlil etilgan.

Globallashuv sharoitida O'zbekiston o'zining maqbul yo'lini tanlab olgan, bu yo'l odamlarni fikrini boshqarishni emas, balki ularda yuksak ma'naviylik tamoyillarini uyg'otish kerakligiga e'tibor qaratiladi va yosh avlodda mustaqil dunyoqarashni shakllantirishni asosiy vazifa, deb bilishiga urg'u beriladi¹¹. Axborot maydonida nafaqat omon qolishni, balki yengib chiqishni asosiy sharti, erkin fikrlaydigan, ijtimoiy mas'ullikni to'g'ri tushunadigan shaxsni tarbiyalash, uning uchun farovon turmush sharoitlarini yaratishdir. Ushbu jarayonlarning mavjudligi ma'naviy ta'sirning mavjudligida namoyon bo'ladi.

Dissertant fikricha, axborot maydonida nafaqat omon qolishni, balki yengib chiqishni asosiy sharti, erkin fikrlaydigan, ijtimoiy mas'ullikni to'g'ri tushunadigan shaxsni tarbiyalash, uning uchun farovon turmush sharoitlarini yaratishdir. Ushbu jarayonlarning mavjudligi ma'naviy ta'sirning mavjudligida namoyon bo'ladi. Ma'naviy ta'sir o'tkazishning uchta asosiy bosqichi ajratilgan:

1. Operatsion bosqich - bunda uning subyektining faoliyati amalga oshiriladi.
2. Jarayon bosqichi - bunda mazkur ta'sir o'tkazishning uning obyekti tomonidan qabul qilinishi (ma'qullanishi) yoki qabul qilinmasligi (ma'qullanmasligi) sodir bo'ladi.
3. Yakuniy bosqich - bunda ta'sir o'tkazish obyekti psixikasining qayta qurilishining oqibati sifatida javob aks ta'sir namoyon bo'ladi.

